

UZLUKSIZ MUSIQIY TA'LIM TIZIMIDA MUMTOZ VA MAQOM MUSIQASINI O'QITISHNI PEDAGOGIK LOYIHALASH MEKANIZMLARI

Qudratova Elnoz Ismatillayevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Musiqiy ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21929840>

ANNOTATSIYA: Maqolada umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida mumtoz musiqa mavzusida darslarni tashkil etishdagi mavjud muammolar hamda ularning yechimi yo'lida pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqa bo'yicha maktab ta'limiga tayyorlash borasidagi darslarni texnologik loyihalashning afzalliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktab, musiqa madaniyati, mumtoz musiqa, tashkil etish, texnologiya, loyihalash, bo'lajak o'qituvchi, afzallik

ABSTRACT: This article considers the benefits of organizing music lessons on the basis of technological designing on the topics of classical music in secondary schools, describes the existing problems in preparation of future music teachers in higher educational institutions.

Key words: school, music culture, classical music, organization, technology, design, future teacher, advantage.

АННОТАЦИЯ: В статье рассмотрено преимущество организации уроков музыки по принципу технологического проектирования по темам классической музыки в общеобразовательных школах, описаны имеющиеся проблемы по подготовке будущих учителей музыки в высших педагогических учебных заведениях.

Ключевые слова: школа, музыкальная культура, классическая музыка, организация, технология, проектирование, будущий учитель, преимущество.

Har qanday jamiyatning mavjudligi, yashovchanligi va mustaqilligini belgilovchi ma'naviy, madaniy omillari bo'lgani kabi o'zbek xalqining g'oyat ulkan va teran ildizlariga ega bo'lgan milliy qadriyatlari mamlakatimiz mustaqilligining ma'naviy-madaniy va mafkuraviy asoslarini mustahkamlaydigan eng muhim omildir. Bu haqiqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning respublikamiz mustaqil rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy istiqboli yo'lida yaratgan asarlari hamda qator qaror va farmonlarida har tomonlama asoslab berildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi (2017-yil 17-noyabr, PQ-3391-son) hamda “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi (2018-yil 28-noyabr, PQ-4038-son) qarorlari ushbu alohida strategik yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Respublikamizda amal qilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi kabi umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa fani va darsliklarida xalq musiqa merosi namunalariga keng o'rin berilgan. Ta'limning ilk davridan boshlab o'quvchilarni o'zbek xalq kuy-qo'shiqlari, ayniqsa o'zbek xalqining tarixiy-madaniy qadriyati — mumtoz va maqom san'ati bilan yaqindan tanishtirib borish, namunalarni tinglash va kuylash jarayonida ularning badiiy ruhiyatidan foydalangan holda o'quvchilarda musiqa madaniyati namunalari vositasida milliy o'zlikni anglash, badiiy-estetik dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

O'zbek xalq musiqiy merosi tarkibida mumtozlik kasb etuvchi asarlar o'zining yuksak ijod namunasi ekanligi, keng diapozonga egaligi, kuyning rivojlanganlik xususiyati, murakkab usullari hamda, asosan, mumtoz she'riyat namunalariga bastalanganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Mumtoz musiqa asarlarini tinglash, o'rganish, kuylash, ular haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish o'quvchilardan muayyan musiqiy bilim, ko'nikma va amaliy ijrochilik malakalarini, musiqa o'qituvchilaridan esa maxsus kasbiy tayyorgarlik va pedagogik mahoratni talab qiladi. O'quvchilarning mumtoz asarlar bilan yaqindan tanishishlari jarayonida ulardagi badiiy obrazlar orqali tasvirlangan voqelik, ijodkorning badiiy tasavvur va kechinmalarini anglash, hissiy idrok etish, asarning badiiy qimmatini farqlash, baholash va unga o'z munosabatini bildirishlariga erishish ta'limning mazmuni, sifat va samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi[3]. Mumtoz musiqaning yana bir muhim jihati uning ustoz-shogird an'anasiga asoslanganligidir. Mumtoz musiqaga oid darslarda musiqa asarlarini tinglash va tahlil qilishga ustuvor e'tibor qaratiladi. She'riy matnlardagi o'xshatishlar, solishtirishlar, tashbehlar, ruhiy holatlar, obraz

va voqelikka xos sifatlarni ijodkor ichki kechinmalari, hissiyotlari bilan bog‘lab, bo‘rttirib tasvirlanishi, kuy tuzilishining murakkab kompozitsiyasi, ohang ijrosidagi o‘ziga xos nola, qochirimlar, avjlar, ayrim tuzilmalarning takrorlanib kelishi, milliy ijrochilikka xos bezaklar haqida beriladigan bilim va tushunchalar dars jarayonida eng muhim jihatlar sanaladi.

Mumtoz, maqom va xalq ashularining ko‘pchiligi mumtoz she‘r va maqom g‘azallar bilan ijro etilib, ularda bugungi kunda nutqimizda iste‘molda bo‘lmagan ko‘plab so‘zlar, atamalar, joy nomlari, sharq mumtoz she‘riyatiga xos tashbehlar mavjudligi ularning ma‘no va mazmunini anglab olishda ayrim muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi, ularni chuqur anglamasdan, his qilmasdan asarning mazmuni, badiiy qiymati, badiiy asar sifatidagi darajasini to‘la idrok etib bo‘lmaydi.

Umumta‘lim maktablarining musiqa darslarida aynan mumtoz musiqa mavzusida (asosan 6–7-sinflarda) darslarning o‘tilishida ta‘kidlab o‘tilgan jihatlariga e‘tiborning sustligi fan o‘qituvchilarining mumtoz asarlar bo‘yicha darslarni pedagogik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilishlari uchun kasbiy-malakaviy tayyorgarliklarining talab darajasida emasligi natijasidir. Bu esa, birinchi galda, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida mumtoz musiqa darslarini Davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi talablari darajasida bo‘lishiga erishish uchun oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini maktab faoliyatiga tayyorlash ishlarini uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlaridagi “Musiqiy ta‘lim” yo‘nalishi o‘quv rejasidagi “An‘anaviy va xalq qo‘shiqchiligi” hamda “O‘zbek mumtoz qo‘shiqchiligi” (2011-yilgacha o‘quv rejasida bo‘lgan, hozirda ko‘pgina oliy o‘quv yurtlarida tanlov fani sifatida o‘tiladi) fanlari mashg‘ulotlari jarayonida mumtoz asarlarni o‘rganishda talabalarni mashhur hofizlarning ijro uslublari, tajribalari bilan muntazam tanishtirib borish, nazariy bilim va tushunchalarga keng o‘rin berish, darslarni o‘ziga xos texnologik yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarni maktab musiqa ta‘limiga tayyorlash uchun puxta zamin yaratilishiga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan xususiyatlarning ilmiy-metodik yechimiga yo‘naltirilgan tadqiqotlar natijalari bir necha mumtoz ashulalarni dars jarayonida o‘rganishning texnologik loyihalarini ishlab chiqish imkonini berdi.

Texnologik loyihalashtirilgan darslardan biri musiqa san‘atimizning gultojlaridan bo‘lgan “Samarqand ushshoqi” (“Injost”) qo‘shig‘iga tegishli bo‘ldi. Sof ishqiy muhabbatni tarannum etuvchi bu ashulaning g‘azali fors tilida yozilganligiga qaramay, uni o‘zbek, tojik san‘atkorlarining juda ko‘plab atoqli vakillari mahorat bilan ijro etishgan va bugungi kunda ham ko‘plab iste‘dodli xonandalar repertuaridan keng o‘rin olgan. Ushbu asarni dars jarayonida o‘rganishda quyidagi texnologik loyiha qo‘l keladi[1]:

Ashulaning talabalar (o‘quvchilar)ning ijrochilik malakasi va ovoz imkoniyatlariga mosligini o‘rganish;

Ashulaning fors tilidagi va o‘zbek tiliga o‘girilgan matn yozuvini tayyorlash;

Auditoriyada qo‘shiqqa mos muhitni, talaba (o‘quvchilar)da shunga monand kayfiyatni vujudga keltirish;

Ashulaning she‘riy matni va musiqa muallifi haqidagi ma‘lumotlarni keltirish;

Qo‘shiqning mohir ijrochilari haqidagi ma‘lumotlar taqdim etish;

Asar she‘riy matnini ifodali o‘qish (fors va o‘zbek tiliga o‘girilgan matnlarni);

Asar g‘oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish, tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarga izoh berish;

Oldindan bir-ikki talaba (o‘quvchi)ni ashula ijrosiga tayyorlash;

Asarning mashhur san‘atkorlar ijrosidagi musiqiy yozuvini tinglash;

Asarni musiqiy-badiiy tahlil qilish;

Ashulani qismlarga bo‘lib o‘rganish (necha soatga mo‘ljallanganiga ko‘ra vaqtni taqsimlash);

Asar o‘rganilgach, uning yozuvini qayta eshitdirish;

Badiiy ijro ustida ishlash;

Izoh: *Loyihaning umumta‘lim maktablari musiqa darslari uchun mo‘ljallangan variantida asosiy e‘tibor tinglash va tahlil qilishga qaratilishi maqsadga muvofiq*[1].

Mazkur darsga qo‘shimcha sifatida quyidagi ma‘lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ashulaning mashhur san‘atkorlar ijrosidagi yozuvlari — Munojot Yo‘lchiyeva, Malohat Dadaboyeva, Dilnura Qodirjonova, O‘ktam Ahmedov ijrolari tanlab olinib, qiyasiy tahlil qilinishi musiqiy ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Asar va uning mohir ijrochilari haqidagi ma‘lumotlarda xalqimizning ardoqli va mashhur san‘atkori, Xalq artisti Halima Nasirovaning bu ashulaga mehri va uni qanday o‘rganganligi haqidagi esdaliklaridan parchalar o‘qib eshitirildi [5].

Qo'shiq mualliflari haqida quyidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tildi: “Samarqand ushshoqi” (“Injost”) qo'shig'i XVI asrda yashab ijod etgan shoira Zebinisoning “Injost” (“Kelmedi”) radifli g'azaliga bastalangan. Ulug' shoir va shoh Bobur avlodidan bo'lgan Zebiniso Sharq adabiyotida ma'lum iz qoldirgan Rbiya Balkhi, Mahsatiy, Iffatiy, Ismatiy, Samarqandiy kabi ijodkorlar qatorida turuvchi shoiradir. Uningsh ishqni ulug'lovchi, insoniy fazilatlarini madh etuvchi “Injost”, “Nashut” singari maqom kuylariga solib aytuvchi g'azallari mashhurdir. Bu ashulani o'zbek va tojik san'atkorlarining bir qancha avlodi qiyomiga yetkazib ijro etishgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Levi Babaxanov, Shohista Mullajonova, Barno Isxoqova, Berta Davidova, Munojot Yo'lchiyeva, Malohat Dadaboyeva, Dilmura Qodirjonova shular jumlasidandir.

Asarni o'rganish jarayonida she'riy matndagi tushunilishi qiyin bo'lgan “*Shahid*”, “*Karbalo*”, “*Ka'ba*”, “*Zakot*”, “*Karashma*”, “*Mustahiq*”, “*Zulf*” kabi so'zlar leksik va filosofik tomondan izohlanadi.

Musiqiy-pedagogik ta'limda dars jarayonini texnologik loyihalash shunchaki konspekt tuzish yoki mashg'ulot rejasini tuzishdan iborat emas. Pedagogik loyihalash — bu kutilayotgan ta'lim natijalariga erishish uchun o'quv materialini saralash, faoliyat turlarini mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish, interfaol usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini muvofiqlashtirishning kompleks didaktik tizimidir.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini mumtoz musiqani o'qitish bo'yicha loyihalash faoliyatiga tayyorlash quyidagi uchta uzviy bosqichda amalga oshiriladi:

1. Diagnostik-analitik bosqich: Bo'lajak o'qituvchi maktab o'quvchilarining yosh, fiziologik, emotsional va musiqiy idrok etish imkoniyatlarini o'rganadi. Mumtoz asarning (masalan, maqom va mumtoz ashulalar) musiqiy tili, diapazoni va matnidagi lisoniy murakkabliklarni baholaydi.

2. Konstruktiv-loyihalash bosqich: Bunda o'qituvchi mashg'ulotning har bir daqiqasini muayyan didaktik maqsaddan kelib chiqib rejalashtiradi. Mumtoz musiqaning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, *musiqing tinglash, kuylash, musiqiy-nazariy tahlil, badiiy-she'riy talqin* hamda *tarixiy-biografik kontekst* o'zaro integratsiya qilinadi.

3. Refleksiv-baholash bosqich: Texnologik xarita asosida o'tkazilgan darsning samaradorligi baholanadi, o'quvchilarning emotsional taassurotlari va o'zlashtirish darajasi tahlil qilinadi, zarur hollarda loyihaga korreksiya kiritiladi.

Mumtoz musiqani o'qitishda texnologik loyihalashning didaktik samaradorligini oshirish uchun fanlararo integratsiyaga (musiqa + adabiyot + tarix + tasviriy san'at) tayanish lozim. Misol uchun, “Samarqand ushshoqi” ashulasini o'rganishda adabiyot fani bilan integratsiya g'azal sharhini chuqurroq anglashga xizmat qilsa, tarix fani bilan integratsiya XVI asrdagi Movarounnahr hamda Boburiylar davri madaniy hayotini ko'z oldiga keltirish imkonini beradi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar dars loyihasini tuzishda zamonaviy multimediya vositalaridan (audio va video qiyosiy prezentatsiyalar, raqamli fonotekalar, vizual-grafik ko'rgazmalar) unumli foydalana olishi zarur. Taniqli xonandalar ijrosini qiyosiy tahlil qilish orqali talabalar va o'quvchilarda tanqidiy eshitish (critical listening) va musiqiy-estetik baholash kompetensiyalari rivojlanadi. Bu esa yengil-elpi, saviyasiz musiqiy mahsulotlarga nisbatan estetik immunitetni shakllantirishning eng samarali yo'lidir[4].

Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy-metodik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mumtoz kuy-qo'shiqlar va maqom san'ati namunalari yoshlar tarbiyasida, ularning ma'naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Biroq ularni umumta'lim maktablarida o'qitish samaradorligi ko'p jihatdan pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ushbu murakkab jarayonga tayyorlash sifati bilan belgilanadi.

Dars jarayonlarini texnologik loyihalash vositasida tashkil etish quyidagi pedagogik afzalliklarga ega:

- Darsning mantiqiy ketma-ketligi, vaqt taqsimoti va didaktik maqsadlarga erishish kafolatlanadi;
- Mumtoz she'riyat matnlaridagi murakkab va arxaik so'zlarni leksik-semantik tahlil qilish orqali o'quvchilarning badiiy tafakkuri va lisoniy madaniyati yuksaltiriladi;
- Turli ijrochilar mahoratini qiyosiy tahlil etish orqali o'quvchilarda eshitish, anglash va estetik baholash ko'nikmalari shakllantiriladi;
- Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik mahorati, loyihalash (proyektlash) va innovatsion-pedagogik kompetensiyalari rivojlanadi.

Umuman olganda, mumtoz musiqaga oid darslarni texnologik loyihalash yo‘nalishida ilmiy-metodik izlanishlarni doimiy ravishda olib borish va ilg‘or tajribalarni ta‘lim amaliyotiga tatbiq etish uzluksiz musiqiy ta‘lim sifatini oshirishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukarimova E.I. Texnologik loyihalash — musiqa mashg‘ulotlarida samarali ta‘lim // *Ilim ham jamiyet* jurnali. — Nukus: Nukus DPI, 2019. — №1. — 61-63-b.

2. Fayzullayev E. *Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o‘zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish*. — Toshkent: Fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi, 2008. — 128 b.

3. Hasanov A. *Musiqa va tarbiya*. — Toshkent: O‘qituvchi, 1993. — 96 b.

4. Kudratov I. *Talabalarni xalq qo‘shiqlari vositasida estetik tarbiyalash*. — Toshkent: Fan, 2009. — 112 b.

5. Nasirova H. *Men o‘zbek qiziman*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1968. — 215 b.

6. Romanova S.E. *Qoraqalpoq milliy musiqiy an‘analari asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ma‘naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari*: Ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. — Toshkent, 2005. — 22 b.